sabat shakllantirish va reklama xabarining kommunikativ maqsadiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan lingvistik va stilistik tahlillar natijasida reklama matnlarida so‘z san’ati vositalarining muhim kommunikativ ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Tadqiqot davomida metafora, epitet, taqqoslash, so‘z o‘yinlari hamda frazeologik birliklar reklama diskursida eng faol qo‘llaniladigan badiiy-tasviriy vositalar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, metaforalar mahsulot yoki xizmatning asosiy xususiyatlarini obrazli va qisqa shaklda ifodalashga xizmat qilib, reklama matnining ta’sirchanlik darajasini oshiradi. Epitet va taqqoslashlar esa reklama xabariga baholovchi va emotsional rang berib, iste’molchi e’tiborini jalb etishda muhim rol o‘ynaydi. So‘z o‘yinlari va frazeologik birliklar reklama matnlarining esda qolarli bo‘lishini ta’minlab, ularning kommunikativ samaradorligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari so‘z san’ati vositalarining reklama matnlarida nafaqat estetik, balki pragmatik vazifani ham bajarishini ko‘rsatdi. Ular auditoriya ongida ijobiy munosabat shakllantirish, reklama xabarining maqsadli auditoriyaga yetib borishini ta’minlash va iste’molchining tanlov jarayoniga ta’sir ko‘rsatishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘tkazilgan tadqiqot reklama matnlarida so‘z san’ati vositalarining muhim lingvistik va kommunikativ ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida metafora, epitet, taqqoslash, so‘z o‘yinlari va frazeologik birliklar reklama diskursida eng faol qo‘llaniladigan badiiy-tasviriy vositalar ekanligi aniqlandi. Ushbu vositalar reklama matnining ta’sirchanligi, obrazliligi va esda qolarli bo‘lishini ta’minlaydi. Ya’ni, u iste’molchi e’tiborini jalb etish, reklama xabarining mazmunini kuchaytirish va auditoriya ongida ijobiy munosabat shakllantirishga xizmat qiladi. So‘z san’ati vositalaridan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish reklama kommunikatsiyasining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, reklama matnlarida so‘z san’atining qo‘llanilishini chuqur o‘rganish reklama tilining nazariy asoslarini boyitish bilan birga, amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari reklama matnlarini yaratish jarayonida tilning estetik va kommunikativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2003, 506 p.

(2). Cook G. The Discourse of Advertising. London, Routledge, 2001, 256 p.

(3). Leech G. English in Advertising: A Linguistic Study of Advertising in Great Britain. London, Longman, 1966, 210 p.

(4). G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2004, 320-bet.

(5). Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. Toshkent, “Fan”, 2011, 200-bet.

(6). Karimov S. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent, “Universitet”, 2008, 240-bet.

Nomozova Nargiza Turayevna (Samarqand davlat Chet tillari instituti o‘qituvchisi)

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIIY ASARLARIDA ZAMON DEYKSISINING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida zamon deyksisi kategoriyasining namoyon bo‘lish xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot maqsadi – ikki til badiiy matnlarida temporal ko‘rsatkichlarning lingvopragmatik funksiyasini aniqlashdir. Metod sifatida kontekstual tahlil, pragmatik yondashuv va qiyosiy tipologiya qo‘llanildi. J.London, E.Hemingway, A.Qahhor, O‘.Hoshimov asarlaridan olingan 350 dan ortiq misol tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida zamon deyksisi grammatik vositalar (12 ta zamon shakli, diskurs markerlari) orqali aniq ifodalansa, o‘zbek tilida kontekstual aniqlovchilar va voqea bayoni tizimi ustundir. Har ikki tilning badiiy matnlarida zamon deyksisi voqealar ketma-ketligini tartibga solish, personajlar psixologiyasini ochish va muallif pozitsiyasini shakllantirish vazifalarini bajaradi.*

Kalit so‘zlar: *zamon deyksisi, pragmalingvistika, qiyosiy tahlil, badiiy matn, temporal markerlar, diskurs tahlili.*

ПРОЯВЛЕНИЕ ВРЕМЕННОГО ДЕЙКСИСА В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье исследуются особенности проявления категории временного дейксиса в английских и узбекских художественных текстах на основе сопоставительного анализа. Цель ис-*

следования – определение лингвопрагматических функций темпоральных показателей в художественных текстах двух языков. В качестве методов применялись контекстуальный анализ, прагматический подход и сопоставительная типология. Проанализировано более 350 примеров из произведений Дж.Лондона, Э.Хемингуэя, А.Каххара, У.Хашимова. Результаты показывают, что в английском языке временной дейксис выражается преимущественно грамматическими средствами (12 временных форм, дискурсивные маркеры), в узбекском языке доминируют контекстуальные определители и система повествования. В художественных текстах обоих языков временной дейксис выполняет функции упорядочения последовательности событий, раскрытия психологии персонажей и формирования авторской позиции.

Ключевые слова: *временной дейксис, прагмалингвистика, сопоставительный анализ, художественный текст, темпоральные маркеры, дискурсивный анализ.*

MANIFESTATION OF TEMPORAL DEIXIS IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Annotation. *The article examines the manifestation features of temporal deixis category in English and Uzbek literary texts based on comparative analysis. The research objective is to identify linguopragmatic functions of temporal indicators in literary texts of both languages. Contextual analysis, pragmatic approach, and comparative typology were applied as methods. Over 350 examples from works by J.London, E.Hemingway, A.Qahhor, O'.Hoshimov were analyzed. Results demonstrate that in English temporal deixis is expressed predominantly through grammatical means (12 tense forms, discourse markers), while in Uzbek contextual determiners and narrative system dominate. In literary texts of both languages, temporal deixis performs functions of organizing event sequence, revealing character psychology, and shaping authorial position.*

Keywords: *temporal deixis, pragmalinguistics, comparative analysis, literary text, temporal markers, discourse analysis.*

Kirish. Zamonaviy pragmalingvistika doirasida deyksis hodisasi til birliklarining ma'nosini nutq vaziyati bilan bevosita bog'liq holda talqin etishga imkon beruvchi muhim nazariy kategoriya sifatida qaraladi. Deyksis nutq ishtirokchilarining vaqt, makon va shaxsiy munosabatlarini belgilash orqali kommunikativ jarayonning semantik va pragmatik asoslarini shakllantiradi. Ushbu hodisaning asosiy turlaridan biri bo'lgan zamon deyksisi voqea-hodisalarni nutq paytiga nisbatan vaqt o'qida joylashtirishni ta'minlaydi hamda badiiy matnda syujet rivoji, narrativ izchillik va muallifning temporal pozitsiyasini ifodalashda muhim funksional vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy matnda zamon deyksisi faqat grammatik kategoriya sifatida emas, balki stilistik va pragmatik hodisa sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Zamon ko'rsatkichlari orqali voqealar ketma-ketligi tashkil etiladi, personajlarning ichki kechinmalari va psixologik holati ochib beriladi hamda muallifning estetik niyati amalga oshiriladi. Temporal vositalarning tanlanishi va qo'llanishi matnning umumiy kompozitsion tuzilishiga, narrativ ritmiga va o'quvchi bilan kommunikativ aloqasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillari turli tipologik tizimlarga mansubligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilining analitik tuzilishi zamon munosabatlarini murakkab grammatik shakllar orqali aniq ifodalash imkonini bersa, o'zbek tilining agglyutinativ tabiati zamon ma'nolarining, ko'pincha, kontekstual va pragmatik omillar bilan uyg'un holda yuzaga chiqishiga olib keladi. Ushbu farq badiiy matnlarda zamon deyksisining namoyon bo'lish shakllari va funksional yuklamasida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi.

Ingliz va o'zbek badiiy adabiyotida zamon deyksisi muallif uslubining muhim tarkibiy qismi bo'lib, narrativ strategiyalarni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ingliz adabiyotida temporal siljishlar, zamon shakllarining almashuvi va diskurs markerlarining faolligi voqealarga dinamiklik bag'ishlasa, o'zbek badiiy matnlarida izchil bayon, retrospektiv tasvir va kontekstual temporal aniqlik ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan, zamon deyksisini qiyosiy-pragmatik nuqtayi nazardan o'rganish har ikki tilning badiiy tafakkurida vaqt tushunchasining qanday ifodalanishini anglashga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Deyksis – nutqning kontekstga bog'liqligini ifodalovchi lingvistik hodisa bo'lib, pragmatik tahlilda til birliklarining vaziyatga bog'liqligini ochib berishda markaziy o'rin tutadi. Levinsonning klassik pragmatika nazariyasida deyksis til va kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatni aks ettiruvchi struktura sifatida ko'riladi, undan tashqari, u nutq paytidagi shaxs, joy va vaqt ma'lumotlarini kodlash vositasi sifatida ta'riflanadi. Levinsonning ta'kidlashicha, deyksis kontekstdagi vaqt va joy parametrlarini til orqali belgilaydi va shuni bilmasdan ayrim iboralarni to'g'ri tushunib bo'lmaydi, masalan "I'm leaving tomorrow" kabi iboradagi "tomorrow" elementi nutq kontekstiga bog'liq bo'ladi [1]. Yule esa deyksisni "til orqali ko'rsatish" jarayoni sifatida tavsiflab, kontekstdagi vaziyat aloqalarini anglashda uning ahamiyatini urg'ulaydi [2]. Filmore va Lyons kabi tadqiqotchilar deyksis nazariyasini ya-

nada rivojlantirib, uni til ichidagi semantik va pragmatik xarakterdagi koʻrsatkichlar orqali oʻrganishga asos yaratdilar. Filmore nutqda "gestural" va "symbolic" deyksik koʻrsatkichlarni ajratib koʻrsatdi, bu yondashuv nutq voqeasidagi situatsiyalarni kontekstli kodlash mexanizmlarini ochib beradi [3]. Lyons deyksisni shaxs, makon va vaqt jihatidan til birliklarini kontekstdagi koordinatalar orqali joylashtirish mexanizmi deb taʼriflab, uning universal til hodisasi ekanligini koʻrsatdi [4]. Yule ham shuni qoʻshimcha qiladi-ki, deiktik iboralar kontekstni anglash orqali nutqdagi vaqt va joy kabidir abstrakt koordinatalarni belgilaydi.

Temporar deyksis, yaʼni, vaqt deyksisi nutqdagi vaqt maʼnosini nutq payti momentiga nisbatan ifodalovchi vosita sifatida oʻrganiladi. Levinson nazariyasida vaqt deyksisi morfologik zamon tizimi hamda vaqt zarflari orqali kodlanadi va har bir tilning temporal strukturasini oʻrganishda kontekst muhim rol oʻynaydi [5]. Shu bilan birga, vaqt deyksisi zamon grammatikasi, vaqt adverbiallari va narrativ voqealarni tahlil qilishda qoʻllaniladi.

Ingliz tilidagi zamon kategoriyasining universalligi va uning turli tillarda namoyon boʻlishi B. Comrie tomonidan chuqur tahlil qilingan boʻlib, u zamonni "vaqt ichidagi joylashtirishning grammatik shakli" deb taʼriflaydi va zamon tizimlarining til tipologiyasidagi oʻxshash va farqli xususiyatlarini koʻrsatadi [6]. Reichenbach esa temporal munosabatlarni tahlil qilishda nutq vaqti (speech time), voqea vaqti (event time) hamda murojaat nuqtasi (reference time) kontseptsiyalarini taklif etib, zamon tushunchasining semantik-pragmatik tafakkurda qanday ishlashini model sifatida berib chiqdi. Ushbu kontseptlar badiiy matnlarni tahlil qilishda ham temporal strukturani aniqlashda muhim metodologik baza boʻlib xizmat qiladi.

Badiiy til tahlilida temporal koʻrsatkichlarning stilistik funksiyasiga eʼtibor ham kuchli boʻlib, Fludernik va Wales kabi olimlar narrativ matnlarda vaqt deyksisinin stilistik va diskursiv funksiyalarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tahlillari vaqt deyksisinin voqealar ketma-ketligini tartibga solishda, dramatik effekt yaratishda va oʻquvchining voqea ichiga kirishiga xizmat qilishini koʻrsatadi (bu tadqiqotlar keng qamrovli narratologik yondashuvni ifodalaydi).

Oʻzbek tilshunosligida esa deyksis masalasi nisbatan kam oʻrganilgan boʻlib, anʼanaviy grammatika va morfologiya doirasida feʼl zamonlari tahlillari mavjud. Olimlar A.Gʻulomov, N.Mahmudov va Sh. Shoabdurahmonov oʻzbek tilining grammatik tuzilishi va zamon tizimini tahlil qilishgan, ammo pragmatik kontekst konveyansiyasi va badiiy matnlarga xos temporal strukturalar yetarlicha ilmiy izohlanmagan. Keyinchalik, O.Bozorov oʻzbek tilida deyksisning lingvopragmatik xususiyatlarini oʻrganib, shaxs, makon va vaqt deyksisining oʻzbek tiliga xos koʻrinishlarini aniqlashga urinib koʻrdi. R.Rasulovning qiyosiy tadqiqotlari shu sohada boshlangʻich qadam boʻlsa-da, u asosan shaxs va joy deyksisiga eʼtibor qaratib, vaqt deyksisini chuqurroq qamrab olmaganligi tufayli til juftliklarida temporar deyksisning qiyosiy analizida hali ilmiy boʻsh joy qolgani koʻrinadi.

Shu tarzda tashkil etilgan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ingliz va oʻzbek badiiy matnlarida zamon deyksisinin qiyosiy lingvopragmatik tahlili mavjud adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan va shu boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarblik kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Ingliz badiiy matnlarida zamon deyksisi murakkab va koʻp qatlamli grammatik hamda leksik vositalar orqali ifodalanadi. Feʼl zamon shakllarining keng tizimi voqealarning vaqt jihatidan aniq joylashtirilishiga xizmat qilib, narrativ aniqlikni taʼminlaydi. Ingliz adabiyotida oʻtgan zamon shakllari, xususan murakkab zamon konstruksiyalari orqali voqealarning oldingi bosqichlari bilan bogʻliqligi koʻrsatiladi. Temporal markerlar voqealar ketma-ketligini tartibga solib, diskurs izchilligini taʼminlaydi hamda matnning ritmik tuzilishiga taʼsir koʻrsatadi. Shuningdek, tarixiy hozirgi zamonning qoʻllanishi oʻtgan voqealarni jonli va dramatik tarzda tasvirlashga imkon berib, oʻquvchini narrativ jarayonga faolroq jalb etadi. Ushbu vositalar temporal perspektivani belgilash, emotsional intensivlikni kuchaytirish va muallif pozitsiyasini ochib berishda muhim pragmatik funksiyalarni bajaradi.

Oʻzbek badiiy matnlarida esa zamon deyksisi, asosan, kontekstual va pragmatik omillar bilan uzviy bogʻliq holda namoyon boʻladi. Feʼl zamon shakllari nisbatan sodda boʻlsa-da, ular matn mazmuni va umumiy vaziyat orqali boyitiladi. Davomli va takroriy harakatlar, koʻpincha, oʻtgan zamon shakllari orqali ifodalanib, badiiy tasvirda sokinlik va kuzatuvchanlik ohangini yaratadi. Temporal maʼnolarni aniqlashtirishda leksik koʻrsatkichlar muhim rol oʻynab, vaqt tushunchasi baʼzan metaforik va falsafiy mazmun kasb etadi. Oʻzbek adabiyotida zamon koʻrsatkichlari, koʻpincha, bevosita grammatik shakllar orqali emas, balki kontekst, tasviriy vositalar va muhitni ifodalovchi birliklar yordamida anglashiladi. Voqealar bayonida oʻtgan zamonning izchil qoʻllanishi milliy narrativ anʼanaga xos xususiyat sifatida namoyon boʻladi.

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, har ikkala tilda zamon deyksisi voqealar ketma-ketligini tartibga solish, personajlar psixologiyasini ochish va muallifning pragmatik pozitsiyasini shakllantirishda umumiy funksional vazifani bajaradi. Shu bilan birga, ingliz tilida zamon deyksisi koʻproq grammatik va diskursiv

vositalar orqali aniq ifodalansa, o‘zbek tilida kontekstning roli ustunlik qiladi. Ingliz badiiy matnlarida temporal siljishlar va eksperimental narrativ usullar kengroq uchrasa, o‘zbek adabiyotida metaforik va kontekstual qo‘llanishlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu farqlar har ikki tilning tipologik va madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida zamon deyksisining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Natijalar ingliz tilida zamon deyksisi asosan rivojlangan grammatik vositalar va diskurs markerlari orqali aniq ifodalanishini, o‘zbek tilida esa kontekst va voqea bayonining izchil tizimi yetakchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Har ikkala tilda zamon deyksisi voqealar ketma-ketligini tashkil etish va muallif pozitsiyasini ifodalashda umumiy pragmatik funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga, ingliz badiiy adabiyotida temporal eksperimentlar kengroq uchrasa, o‘zbek adabiyotida an’anaviy bayon orqali psixologik chuqurlik yaratiladi. Tadqiqot xulosalari badiiy tarjimada temporal vositalarning funksional ekvivalentligini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://doi.org/10.5526/esj23

(2). Yule G. The study of language. Cambridge university press, 2022.

(3). Fillmore C.J. Deixis and context. Context in language learning and language understanding. 1998, c. 27–41.

(4). Lyons A. Self-presentation and self-positioning in text-messages: Embedded multimodality, deixis, and reference frame: дис. Queen Mary University of London, 2014.

(5). Levinson S.C. Deixis. The handbook of pragmatics. 2006, c. 97–121.

(6). Comrie B. Tense. Cambridge university press, 1985, т. 17.

Halimova Umriya To‘lqinovna (Navoiy davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi 1-kurs magistranti)

ANVAR OBIDJON QISSALARIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Anvar Obidjonning qissalarida frazeologik birliklar lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda frazeologizmlarning ijtimoiy va psixologik funksiyalari yoritildi. Frazemalarning denotativ ma’nosi saqlangan holda konnotativ qatlamlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *qissa, idioma, frazema, badiiy matn, aktual birlik, emotsional fon, ekspressiv bo‘yoq.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОВЕСТЯХ АНВАРА ОБИДЖАНА

Аннотация. *В данной статье фразеологические единицы в повестях Анвара Обиджона были проанализированы с лингвопоэтической точки зрения. В исследовании освещены социальные психологические функции фразеологизмов. Коннотативные слои фразем были изучены при сохранении их денотативного значения.*

Ключевые слова: *повесть, идиома, фразема, художественный текст, актуальный фон, экспрессивная окраска.*

THE LINGUOPOETIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGIC UNITS IN ANVAR OBIDJON’S NOVELLAS

Annotation. *In this article, the phroseological units in Anvar Obidjon’s stories were analyzed from a linguopoetic point of view. The study highlights the social and psychological functions of phraseological experissions.The connotative layers of the phraseology, while proses were examined while preserving their denotative meanings.*

Keywords: *story, idiom, phraseme, literary text, relevant background, expressive coloring.*

Kirish. Badiiy asar ta’sirchanligini oshirish uchun unda qo‘llanadigan tasviriy vositalarga alohida e’tibor qaratish lozim. Badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli – estetik idrok qilish mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Badiiy matnning badiiy butunlik sifatida o‘quvchi tomonidan tushunilishi, albatta, ijodkorning murakkab estetik faoliyati natijasidadir. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani – “lingvistik poetika” – “lingvopoetika” deb nomlash filologiya ilmida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yaratilgan har qanday badiiy asarning til xususiyati asardan ko‘zlangan maqsad uchun alohida ahamiyatga ega. “Badiiy asarni lingvistik jihatdan o‘rganar ekanmiz, matnda til qurilishi, leksemalarning semantik jihatdan o‘zaro birliklarga bo‘linishi, aktuallashgan til vositalarining